

BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASHDAGI IQTISODIY -IJTIMOIY OMILLAR

Achilova Shabnam Ilhombek qizi

Urganch davlat pedagogika instituti Milliy g'oya ,ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Barqaror rivojlanish nima, uni qanday amalga oshirish tog'risida so'z olib boriladi. Jumladan mamlakatimizda barqaror taraqqiyotni ta'minlash borasida tizimli ravishda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar va islohotlar yoritiladi. Yaqin besh yillikga mo'jallangan O'zbekiston respublikasining Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyat va samarali taraflari yortib beriladi .*

Kalit so'zlar: *Taraqqiyot, globallashuv, strategiya, islohot, ijtimoiy, iqtisodiy, barqaror, rivojlanish, Harakatlar strategiyasi, renessans, davlat, jamiyat, Yangi O'zbekiston*

Hozirda tobora taraqqiy etayotgan bir davrda yashamoqdamiz . Kundan kunga hayotimizni globallashuv omillari qamrab olmoqda . Ijtimoiy , iqtisodiy , siyosiy , madaniy va hayotning barcha jabhalarida tez suratlarda yangi-lanish va o'zgarishlar o'z bo'yini ko'rsatmoqda . Shuning uchun ham 21-asr globallashuv asri nomini olgan . Hayotimizda deyarli har kuni eshitadigan va ishlatiladigan tushunchalarimizdan biri bu globallashuvdir . Globallashuv atamsining lug'aviy ma'nosini va etimologiyasiga to'xtaladigan bo'l-sak , bu jarayon 18-asrdan buyon davom etib kelayotgan holatdir .

Jarayonning boshlanishiga sabab qilib esa jahon iqtisodiyotida kapita-listik tuzumning joriy etilishi , umumjahon harbiy tartibi , mehnat taqsimoti-ning shakllanishi kabilar ko'rsatiladi . " Global " fransuzcha so'zdan olingan bo'lib umumga oid , umumga taalluqli ma'nolarini anglatadi . Global so'zi aslida lotincha " globus " shar so'zidan kelib chiqqan bo'lib , butun yer shari bo'yicha kechadigan umumsayyoraviy jarayonlarni nazarda tutadi .

Xullas globallashuv jamiyat hayotining barcha sohalari iqtisodiyot , siyosatmafura va madaniyat hattoki aholining turmush tarzini qamrab olgan bir davrda mustahkam bir pozitsiyada turmog'imiz lozim . Bu pozitsiyani ta'minlaydigan bir jihat sifatida barqaror taraqqiyotni ta'minlashni ko'rsati-shimiz mumkin . Barqaror taraqqiyot deganimizda jamiyat hayotida faoliyat olib borayotgan jabhalarining bir maromda , tizimli va tadrijiy ravishda o'sib , rivojlanishini nazarda tutadi . Jamiyatda barqarorlik va tinchlikni ta'minlamay turib , xalqni va davlatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish mushkulroq ish xisoblanadi . Bu borada fuqarolarning xalqning , fuqarolarning tinch -totuv , davlatdandan ko'ngli to'lgan holda munosib ha-yot kechirishini ta'minlash ustvor vazifa hisoblanadi .Har

bir davlatning , xalqning barqaror taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlash va amalga oshirish borasida o'ziga yarasha maqsad va rejaları mavjud bo'ladi . Mana shu maqsad va rejalar asosida o'zining rivojlanish yo'li va islohotlar rejasini aniq ishlab chiqqan holda ish olib boradi . Barqaror rivojlanish ta'minlashda amalga oshiriladigan islohot rejaları xalqning , davlatning tarixiy kelib chi-qishi , xususiyatlari , tarixiy -nazariy asoslari va milliy -ma'naviy manfaatlar , mentaltetidan kelib chiqqan holda belgilanadi . Mamlakatimizda ham mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillaridayoq barqaror taraqqiyot ga erishish beshta ustvor yo'nalishdan iborat " O'zbek modeli " ishlab chiqilgan bo'lib , shu davrdagi ijtimoiy -siyosiy va iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda yo'nalish va maqsalar belgilab olingan . Prezidentimiz Shavkat

Miromonovich Mirziyoyev o'z faoliyatini boshlaganidan so'ng esa mamlakatda barqaror rivojlanishni ta'minlash borasidagi islohotlar strategiyasini e'lon qildi . Mazkur strategiya 2017-yilning 7-fevralida ishlab chiqilgan bo'lib beshta ustvor yo'nalishdan iborat " Harakatlar strategiyasi "da ijtimoiy , siyosiy , iqtisodiy , madaniy va xavsizlik sohalarida barqaror taraqqiyotni ta'minlash asosiy vazifa sifatida ko'rsatilgan . Mazkur strategiyaning uzviy davomi sifatida yana ko'proq muammo va vazifalarni qamrab olgan , hozirgi zamonning barcha talab va kriteriyalariga tog'ri kela-digan tartibda ishlab chiqilgan O'zbekiston respublikasining " Taraqqiyot strategiyasi " ishlab chiqildi . Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev strategiyani qabul qilish paytida shunday degan edilar mamlakatimizda olib borilayot-yotgan har bir islohotga xalqimiz yuksak ishonch va umod bog'lamoqdalar, shuning sababli islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida " Harakatlar strategiyasidan - Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi sari " tamoyilini ilgari suramiz deya ta'kidlab o'tgan edilar .

O'zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli qarori asosida " Yangi O'zbekistonning 2022- 2026-yillarga mo'jallangan Taraqqiyot strategiyasi " e'lon qilindi . Strategiya 2022-yilning yanvar oyida jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi . Jamoatchilik muhokamasi davomida 16,7 mingdan ortiq talab va takliflar kelib tushgan .

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi jami yetti ustvor yo'nalishdan iborat bo'lib ular quyidagilardan tashkil topgan :

1-yo'nalish : Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish

2-yo'nalish : Mamlakatimizda davlat va qonun ustvorligi tamoyillarini taraqqiyotning asosiy va zarur shartiga aylantirish

3-yo'nalish : Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash

4-yo'nalish : Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish

5-yo'nalish : Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga ol-ib chiqish

6-yo'nalish : Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish 7-yo'nalish : Mamlakatimiz xavfsizlik va mudofaa salohiyatini kuchaytirish ochiq va pragmatik , faol tashqi siyosat yuritish kabi quyidagi ustvor yo'nalishlardan iboratdir .

Strategiyaning samarali va faol amalga oshirish maqsadida bir nechta qo'mita va tashkilotlar tashkil etilgandir.Strategiya o'zida 100 maqsad va 398 ta bandni o'z ichiga qamrab olgandir .Mazkur maqsad va bandlarni amalga oshirish uchun davlat budjetidan 55 trln so'm va 11, 7 mlrd AQSH dollari miqdori pul mablag'lari ajratilgandir .

Barqarorlikni ta'minlash borasida olib borilayotgan barcha islohotlar mamlakatdagi fuqarolar va aholining munosib hayot kechirish maqsadida amalga oshirilayotgapti.Mamlakatimizdagi barqaror rivojlanish to'g'risidagi maqsadlarimiz har bir insonning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash uchun oldimizga qo'yiladi .Taraqqiyot strategiyasining ham bosh tamoyili " Davlat -inson uchun " g'oyasini ilgari suradi . Dunyoda mavjud xalqlarning barchasi qatori bizning o'zbek xalqimiz ham o'z taraqqiyotining yuksak marralari sari ildam oldimlar tashlamoqda

Darhaqiqat xalqimiz o'zining yorug' kelajagi , go'zal va musaffo tongi tomon intilishda ko'zga ko'rinarli yutuqlarga erishmoqda . Bu jarayonda albatta biz yoshlarning o'rnimiz va rolimiz kattadir .Kirib kelayotgan har bir yangilik va islohotlarni targ'ib qilishda yoshlarga yuklatilgan vazifa ahamiyatlidir.

Shunday ekan buyuk maqsadlarimiz yo'lida belni maxkam bog'lamog'imiz lozim. Zero maqsadimiz oliy, kelajak buyukdir !!!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.S. Xajiyeva " Globallashuv asoslari " Toshkent . 2020
2. Shavkat Mirziyoyev " Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi". Toshkent . 2022
3. S. N .Xashimova , A. A.Abdikarimova " Barqaror taraqqiyotni ta'minlashda yashi iqtisodiyot va raqamlashtirish " .Iqro jurnali .2023
4. O'zbekiston respublikasi prezidentining " 2022 -2026-yillarga mo'jallan-ga Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi " PF -60 -sonli qarori
5. [https://t.me .lex .uz](https://t.me.lex.uz)